



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

“ZAMONAVIY BANKLARNING ROLI VA AHAMIYATI”

Eshqulov Baxodir Karimberdi o‘g‘li

“Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi ijro etuvchi direktori o‘rnibosari
baxodireshqulov@icloud.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy banklarning iqtisodiyotdagi o‘rni, asosiy funksiyalari, turlari va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi keng yoritilgan. Banklarning kreditlash, omonatlar bilan ishslash, investitsion xizmatlar ko‘rsatishdagi roli misollar va faktlar bilan asoslab berilgan. Shuningdek, soha olimlarining fikrlari orqali banklarning jamiyatdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Bank, iqtisodiyot, tijorat banki, davlat banki, raqamli bank, kredit, omonat, internet-banking, mobil ilova, investitsiya, moliyaviy xizmatlar.

Banklar — zamonaviy iqtisodiy tizimning yuragi sanaladi. Ular moliyaviy resurslarni yig‘ish, qayta taqsimlash va iqtisodiyotga yo‘naltirish orqali mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Banklar deganda faqat pul saqlanadigan joy emas, balki moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish vositasi tushuniladi.

Moliya sohasi bo‘yicha taniqli olim Jozef Stiglits shunday deydi: “Moliyaviy institutlar – bu jamiyatning qon tomirlari bo‘lib, ular orqali resurslar bir joydan ikkinchi joyga oqadi. Banklar esa bu tizimning eng muhim organlaridan biridir”. Banklar aholining ortiqcha mablag‘larini omonat sifatida yig‘ib, ularga foiz hisobida daromad beradi. Bu banklarning asosiy va eng qadimiylar funksiyalaridan biri sanaladi. 2024-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonda aholi omonatlari 25 trillion so‘mga ko‘payib, 105 trillion so‘m bo‘ldi. Bu banklar barqaror rivojlanayotgani, ularga aholi va tadbirkorlar ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Banklar jamiyatdagi iqtisodiy faollikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, tadbirkorlar uchun ajratiladigan kreditlar yordamida yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatimizda kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi hozirgi 28 foizdan 40 foizga oshirilib, 120 trillion so‘mga yetkaziladi. Tadbirkorlar ehtiyojidan kelib chiqib banklar 2025-yilda



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

chetdan davlat kafolatisiz 6 milliard dollar jalg qilishi rejalashtirilgan. Banklar orqali mahalliy va xalqaro pul o'tkazmalari, kommunal to'lovlar va boshqa moliyaviy operatsiyalar tez va xavfsiz amalga oshiriladi. Ayniqsa, pandemiya davrida bank to'lov tizimlari fuqarolarga masofadan xizmat ko'rsatishda katta rol o'ynadi. Banklar, shuningdek, investorlar va korxonalar o'rtaida vositachilikni amalga oshiradi. Ular qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, fond bozorlari va loyihalarga sarmoya kiritish xizmatlarini ham ko'rsatadi.

Banklar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadigan iqtisodiy bo'g'in hisoblanadi. Bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki, butun dunyo miqyosida yangidan-yangi bank xizmatlariga talab ortib, buning natijasida banklarning xizmat turlari mutlaqo yangicha ko'rinish kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan banklarning iqtisodiyotdagi o'rni yanada ortmoqda. O'tgan davr mobaynida banklarimiz tomonidan bir qancha zamonaviy bank xizmatlari joriy etildi. Xususan, Bank-Mijoz xizmati (yuridik shaxslarga o'zlarining hisobraqamlarini doimiy ravishda masofadan turib kuzatib borish hamda boshqarish, ya'ni, turli xil to'lovlarни mustaqil holda amalga oshirish imkonini beradi), Sms-banking xizmati (bu xizmat turi bank kartalaridagi mablag'larni offline rejimda sms orqali boshqarishni anglatadi), Internet-banking (bank xizmatlaridan internet brauzerlari orqali onlayn holatda bank hisobraqamlari va plastik kartalarini boshqarish orqali foydalanish), Mobile-banking xizmatlari (bu — maxsus mobil ilovalar orqali mijozlarning o'z to'lovlarini va boshqa operatsiyalarini amalga oshirishlarida foydalilaniladigan xizmat turi) shular jumlasidandir.

Zamonaviy banklar nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir. Ular yordamida odamlar o'z ehtiyojlarini moliyaviy jihatdan ta'minlashi, tadbirkorlar biznesini kengaytirishi va davlat yirik infratuzilma loyihibarini amalga oshirishi mumkin. Bugungi raqamli asrda banklar mijozlar ehtiyojlariga moslashgan holda tezkor, xavfsiz va qulay xizmatlarni taklif etmoqda. Ayniqsa, internet-banking, mobil ilovalar va Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik bu sohani zamonaviy va innovatsion yo'nalishga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, bank xizmatlaridan to'g'ri foydalanish va moliyaviy savodxonlikni oshirish har bir fuqaroning shaxsiy farovonligiga xizmat qiladi.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

Kelajakda sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalar bank tizimining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda. Bu esa yangi imkoniyatlar bilan birga, yangi mas'uliyat va xatarlarga ham sabab bo'ladi. Demak, zamonaviy banklar bilan hamnafas bo'lish uchun har bir inson zamon talablari bilan hamnafas bo'lishi zarur. So'z yakunida mashhur iqtisodchi Klaus Shvabning quyidagi fikrini eslash o'rinci: "To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida bank tizimi shunchaki moliyaviy institut emas, balki raqamli dunyoning yuragi bo'lib qoladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stiglitz, J. E. (2000). "Globalization and Its Discontents. W.W. Norton & Company"
2. Декина И.А. Современные банковские операции, продукты и услуги //Современные научные исследования и инновации. 2016. № 6
3. Yunus, M. (2007). Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. PublicAffairs.
4. Klaus Schwab. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/7778>.